

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

“MA’NAVIY TARBIYADA RAQAMLI BOSHQARUV – SAMARALI NATIJA GAROVI” METODIK ISHLANMA

*NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA
QARASHLI 23- SONLI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI
MA'NAVIY –MA'RIFIY ISHLAR BO'YICHA DIREKTOR O'RINBOSARI
BAYMENOV QUANISH YELEUSINOVICH*

Annotatsiya: Mazkur metodik ishlanmada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda raqamli boshqaruvning ahamiyati, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari hamda ta'lim muassasalarida samarali monitoring olib borish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda elektron platformalar, onlayn nazorat, interaktiv metodlar va raqamli vositalarning o'rni ochib berilgan.

Raqamli Boshqaruv Quyidagi Vazifalarni Bajaradi:

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni rejalashtirish;
o'quvchilar faolligini elektron monitoring qilish;
ota-onalar bilan onlayn hamkorlikni yo'lga qo'yish;
elektron hisobot va tahlillarni yuritish;
tarbiyaviy ishlar samaradorligini baholash.

Ma'naviy Tarbiyada Raqamli Boshqaruvning Mazmuni

Ma'naviy tarbiya – yoshlarning axloqiy, estetik, vatanparvarlik va insonparvarlik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda raqamli boshqaruv vositalari katta imkoniyat yaratadi.

Ta'lim muassasalarida elektron kundalik, onlayn platformalar, mobil ilovalar va virtual sinflardan foydalanish orqali ma'naviy tarbiya jarayoni yanada tizimli tashkil etiladi.

Raqamli Texnologiyalarning Ma'naviy Tarbiyadagi O'Rni

Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Ayniqsa:

multimedia taqdimotlari; videoroliklar; onlayn viktorinalar; interaktiv testlar; virtual ekskursiyalar ma'naviy tarbiya mashg'ulotlarini samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, “Vatanparvarlik”, “Milliy qadriyatlar”, “Kitobxonlik madaniyati” mavzularida videodarslar tashkil etilishi o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi.

Shuningdek, Telegram guruhleri, Google Classroom, Zoom platformalari orqali ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni masofadan tashkil etish imkoniyati ham mavjud.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

LOYIXA MAQSADI

O'quvchilarda raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirish hamda ma'naviy qadriyatlarga hurmat hissini rivojlantirish.

JIXOZLAR

KOMPYUTER

PROYEKTOR

INTERNET TARMOG'I

SLAYD VA VIDEOROLIKLAR

TEST PLATFORMASI

MASHG'ULOT BOSQICHLARI

1-bosqich:

TASHKILIY QISM

Salomlashish;
Davomatni aniqlash;

Salomlashishni noan'anaviy usulidan foydalanamiz "Qarsak" usuli. Bugungi masg'ulotga yaxshi kayfiyatda kelganlar o'zimizni sharafigimizga 1 ta qarsak chalamiz.

2-bosqich:

KIRISH QISMI

O'qituvchi raqamli
texnologiyalar va
ma'naviy tarbiya

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Bugungi globallashuv davrida jamiyat taraqqiyoti axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib bormoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida ma'naviy tarbiya ishlarini samarali tashkil etish uchun raqamli boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli boshqaruv – bu ma'lumotlarni tezkor yig'ish, tahlil qilish, nazorat qilish hamda natijadorlikni oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy boshqaruv tizimidir. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni raqamlashtirish orqali o'quvchilar faoliyatini monitoring qilish, ularning qiziqishlarini aniqlash va individual yondashuv asosida tarbiyaviy ishlarni olib borish imkoniyati kengayadi.

Bugungi yoshlar internet, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanayotgan bir davrda ma'naviy tarbiyani ham zamonaviy vositalar asosida tashkil etish dolzarb masalaga aylandi. Shu sababli pedagoglardan innovatsion yondashuv, raqamli savodxonlik va interaktiv metodlardan unumli foydalanish talab etiladi.



Ma'naviy tarbiyada interaktiv metodlardan foydalanish


RAQAMLI BOSHQARUV ASOSIDA QUYIDAGI METODLARDAN FOYDALANISH TAVSIYA ETILADI

1. “Aqliy hujum” metodi O'quvchilarning erkin fikrlashi va muammoga ijodiy yondashishini rivojlantiradi.
2. “Debat” metodi Ma'naviy mavzular yuzasidan bahs-munozaralar tashkil etilib, o'quvchilarda muloqot madaniyati shakllantiriladi.
3. “Onlayn so'rovнома” Google Forms yoki boshqa platformalar orqali o'quvchilarning fikri o'rganiladi.

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

4. “Case-study” metodi Hayotiy vaziyatlar asosida muammoli topshiriqlar beriladi.

5. “Virtual sayohat”MTarixiy obidalar va muqaddas qadamjolar haqida virtual ekskursiyalar tashkil etiladi.



XULOSA

Ma’naviy tarbiya tizimida raqamli boshqaruvdan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, nazorat qilish va monitoring olib borish ancha qulaylashadi. Raqamli vositalardan oqilona foydalanish yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini kengaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga va axborot madaniyatiga o‘rgatadi.

Shunday ekan, ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani raqamli boshqaruv asosida tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.